

## IJTIMOIY SOHADA EHTIYOJMAND OILALAR VA BOLALARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING AHAMIYATI

*Xusanova Dilnoza Alimqul qizi*

*O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistondagi ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan yangiliklar, joriy islohotlar haqida batafsil yoritilgan. Maqolada ehtiyojmand oilalarga amaliy ko'mak berish, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, shuningdek ushbu sohada joriy etilayotgan o'zgarishlarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati haqida taklif va xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy himoya yagona reestri, ijtimoiy xizmat, ijtimoiy soha, ehtiyojmand oila, taraqqiyot, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy himoya.

O'zbekiston Respublikasida keng qamrovli ijtimoiy sohadagi islohotlar o'tkazilayotgan bir paytda ehtiyojmand oilalarga amaliy ko'mak berish, bolalarni ijtimoiy himoya qilish uchun ham ko'zga ko'rinarli darajada islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan aholiga yordam berish maqsadida chora-tadbirlar amalga oshirish zarur. Bugungi kunda ehtiyojmand oilalarni va bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdorini oshirish, ijtimoiy himoya dasturlari va strategiyalari qamrovini kengaytirish bo'yicha vazifalar amaliyotga keng joriy etilishi dolzarb vazifa hisoblanadi. Ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy og'ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan mexanizmlarni joriy etish va qo'shimcha resurslarni jalb qilish yo'nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilayotganligi ijtimoiy soha rivoji uchun muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasida ehtiyojmand, kam ta'minlangan oilalarni va bolalarni ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022-2026-yillariga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 53-maqsadida aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, ehtiyojmand aholi qatlamlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalasi o'z aksini topgan<sup>1</sup>. Bundan tashqari, bolani ijtimoiy himoya qilish, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash va ro'yobga chiqarish zaruriy omil sanaladi. Bola huquqlarini maxsus himoya qilish zarurati dastlab Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill, shuningdek bolalar manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning tegishli hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Xususan, 1959-yilgi Bola huquqlari deklaratsiyasida har bir bola uchun hech qanday kamsitish va cheklashlarsiz ularning huquq va erkinliklari mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu Deklaratsiya asosida 1989-yil 20-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlari

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022.

sohasidagi birinchi majburiy xalqaro hujjatdir. Mazkur hujjatda insoniyatning uzviy bo‘lagi sifatida tan olingan bolalarning fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari kafolatlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz uchun jamiyatda begona bola yo‘q va bo‘lmasligi kerak. Hammasi o‘zimizning, O‘zbekistonimizning bolalari. Vaqtida mehr ko‘rsatsak, ishga, ilmga, kasb-u hunarga, ezgu fazilatlariga o‘rgatsak, ularning yo‘lini ochib bersak, ertaga foydasi o‘zimizga, jamiyatimizga tegadi”. Darhaqiqat, bolalarni ijtimoiy himoya qilish, sog‘ligini saqlash, iqtisodiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, noyob iqtidori va iste’dodini yuzaga chiqishiga ko‘maklashish kabi vazifalar tizimli va izchil amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilmoqda. Qolaversa, ehtiyojmand va kam ta‘minlangan oilalarning farzandlari, yetim va nogironligi bo‘lgan bolalarning huquqlari va erkinliklarini har tomonlama ta‘minlash, ularning ilmiy va ijodiy salohiyatini yuksaltirish davlat va jamiyatimizning doimiy e‘tiborida hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy sohadagi ishlarni va loyihalarni samarali rejalashtirish va bu sohani rivojlantirish bo‘yicha yechimlarni ishlab chiqish, shuningdek ushbu sohaga doimiy ravishda investitsiya va mablag‘larni kiritish va shu orqali himoyaga muhtoj oilalar va bolalarni ta‘minlash uchun dastur va strategiyalar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasida quyidagilar o‘rin olgan:

–kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi joriy qilindi;

–kam ta‘minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda to‘rt barobarga oshib, 1,9 millionga etdi;

–kam ta‘minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to‘lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o‘rtacha 1,5 barobarga oshirildi;

–ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari 3,2 baravarga oshirildi, aholini bandligini ta‘minlashga qaratilgan 20 dan ortiq yangi instrumentlar joriy etildi.<sup>2</sup>

O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlariga quyidagilarni misol qilish mumkin:

ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlashga ehtiyojmand barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;

ijtimoiy xizmatlar sohasidagi kadrlar salohiyatini oshirishning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish;

ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish va dasturlash hisobiga kengaytirish;

ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ijtimoiy himoyani ta‘minlashda adolat, odillik prinsiplariga asoslanish;

aholining muhtoj qismini xizmat ko‘rsatish sohasiga jalb etish va ularni ishsizlikdan himoyalash;

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-175-son Farmoni, 25.07.2022

ijtimoiy xodimlarning vakolatlarini kengaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash.

Respublikamizda bolalarning ijtimoiy himoyasini yaxshilashga qaratilgan strategik va barqaror yondashuvlar ham amaliyotga keng joriy etilmoqda. 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni deb e'lon qilinganligi ham bolalarni har tomonlama parvarishlash va himoya qilish dolzarbligini anglatadi. O'zbekiston himoyaga muhtoj bolalar va oilalarning farovonligi uchun ijtimoiy g'oya va loyihalarni keng qamrovda kuchaytirmoqda. Oilaviy muhiti og'ir ahvolda bo'lgan, shuningdek nogironligi bo'lgan bolalar integratsiyasi hamda ijtimoiy xavfli guruhlaridagi bolalar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalarni himoya qilish bo'yicha islohotlarni kuchaytirish uchun ijtimoiy xizmat xodimlarini o'qitish va qo'llab-quvvatlash zaruriy vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy sohalaridagi amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, har bir islohotning inson manfaatlari uchun xizmat qilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Ijtimoiy islohotlar zamirida inson, uning hayoti, sha'ni, qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadi. Ehtiyojmand oilalarni kambag'allik holatidan chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy yordam va xizmatlar dasturlarini yaratish, bolalarni turli zo'rvonliklardan qolaversa, majburiy mehnatdan individual ijtimoiy himoya qilish rejasini ishlab chiqish lozimligi ustuvor vazifa hisoblanadi. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyaga olish, xususan oilalarga bolalarni tarbiyaga olish, ularni vaqtinchalik parvarish qilish xizmatlarini keng joriy etish, ularga davlat tomonidan mablag' ajratishni joriy etish davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxorlikning bir shaklidir. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 57-moddasiga ko'ra:

"Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi"<sup>3</sup>, – deya huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordamning aholi ehtiyojmand va kam ta'minlangan qatlamlariga manzilli yetkazib berilishini ta'minlash, kambag'al oilalarning qashshoqlikka tushishiga yo'l qo'ymaslik, oilalarni kambag'allikdan olib chiqish, ularni bandlik bilan ta'minlash chora-tadbirlari amalga oshirilishi lozim. Ijtimoiy yordam va ko'makdan oilalarni kambag'allik va qashshoqlik holatidan chiqarishga qaratilgan vosita sifatida foydalanish maqsadida davlatimiz tomonidan berilayotgan bolalar nafaqalarini joriy etish ham kambag'allikni qisqartirishda muhim omil sanaladi. 2020-yil 29-maydagi "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlar mamlakatimizda ushbu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni muayyan tartibga solib, zarur yo'nalishlarni belgilab berdi. Bolalarni har tomonlama himoya

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi



qilish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, majburiy mehnatga jalb qilishga qarshi kurashish bo'yicha so'nggi yillarda O'zbekistonda davlat rahbari, parlamenti va hukumati sa'y-harakatlari bilan mamlakatimizda bolalar mehnatiga to'liq barham berildi.

Hozirgi axborot texnika rivojlanayotgan, integratsiyalashuv avj olayotgan bir davrga kelib, aholining yashash va turmush sharoitini yuksaltirish, bolalarni himoya qilish ijtimoiy sohada qilinishi lozim bo'lgan birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun tadbirkorlik faoliyatini yuritishga qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek kam ta'minlangan yoshlar va xotin-qizlarning turli startap dasturlarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish lozim. Bundan tashqari, bandlikka va ish bilan ta'minlanishga ko'maklashish xizmatlarini ko'rsatishda band bo'lmagan aholi bilan mehnat organlari o'rtasida davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'larning maqsadli va tizimli ishlatilishi uchun ijtimoiy shartnoma tuzish tizimi to'liq yo'lga qo'yilayotganligi ham adolatli va odil siyosat yuritilayotganligining zamiridir. Xulosa qilib aytganda, ishsiz fuqarolarni kichik tadbirkorlikka jalb etish va bandlikka ko'maklashish dasturlariga ajratilgan resurslarni inson kapitalini rivojlantirishga, ya'ni kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish va tadbirkorlikka jalb qilish kabi dasturlarga yo'naltirish lozim. O'zbekistonning bolalar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish borasida ham so'nggi yillarda amalga oshirayotgan chora-tadbirlar, shu jumladan, ushbu sohadagi qonunchilik bazasini rivojlantirish va tizimlashtirish borasidagi sa'y-harakatlar haqida ham baralla aytishimiz lozim. Bolalarni himoya qilish har bir fuqaroning burchi va vazifasi hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-sonli Farmoni, 25.07.2022.
3. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023.